

ABDULLA QAHHOR “BEMOR” HIKOYASINING DIDAKTIK TAHLILI

Rashidova Rayhona

Buxoro Xalqaro Universiteti Filologiya kafedrası
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1 - bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19203208>

Annotatsiya. Ushbu maqola taniqli yozuvchi Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi haqida atroflicha yoritib o'tadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, o'zbek adabiyoti, maktabi, ma'rifatparvar, faoliyati, hikoyasi.

O‘zbek milliy nasrining zabardast vakillaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor 1907-yili 17 senyabrda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchi bo‘lgan. Lekin bu kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmagani sababli u doim ish izlab qishloqqa qishloq ko‘chib yurgan. Shu tufayli Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursuh, Kudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on kabi Qo‘qon atrofidagi qishloqlarda kechgan. Kechqururlari otasi Abdullaga suratli eski kitoblardan hikoyalar o‘qib bergan.

Qiyinchiliklarga qaramay, otasi Abduqahhor Jalilov va onasi Rohat aya o‘g‘liga boshlang‘ich ta‘limni bera olishgan. U o‘n yoshga to‘lganda Buvaydadagi eski maktabga o‘qishga kiradi, biroq ko‘p o‘tmay oila Oqqo‘rg‘onga ko‘chadi. Oqqo‘rg‘on maktabida Abdulla qo‘qonli Muhammadjon qorining usuli savtiya maktabida tahsil ko‘rgan Muhammadjon qori ilg‘or fikrli ma‘rifatparvar odam edi. U geografiya, matematika kabi ilmlarni ham o‘qitgan. Ayniqsa, shogirdlarida sharq adabiyotiga qiziqish uyg‘otishga uringan.

Ehtimol shu bois bo‘lsa kerak, Abdulla Qahhor umrining ohirigacha Sa‘diy va Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo‘ldan qo‘ymay mutolaa qilar, ularning ancha-munchasini yod bilar va o‘rni kelganda ulardan parchalar keltirib, fikrini dalillar edi. Shundan so‘ng Abdulla Qo‘qonda yangi ochilgan “Istiqbol” maktab internatida o‘qiy boshlagan, bu internat Abdullaning zehni yanada o‘tkirlashtirgan.

1922-1924 yillarda Abdullada adabiyotga qiziqish avj ola boradi. Bu yillarda u Qo‘qon pedtexnikumida o‘qigan, umrida birinchi marta Pushkin, Gogol, Turgenev, Tolstoy asarlaridan xabardor bo‘lganlar. Texnikumda chiqadigan “Bilim yurti” devoriy gazetasiga she‘rlari va maqolalari bilan tez-tez qatnashib turgan. Abdulla Qahhor 1926-yilda ishchilar fakultetiga o‘qishga kiradi va uni tugatib yana jurnalistik faoliyat bilan shug‘ullanadi. U 1934-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetida tahsil oladi.

Abdulla Qahhorning ijodiy yo‘li

1923 yilning dekabr oyida “Mushtum” jurnalida Abdulla Qahhorning birinchi felyetoni bosilgan. Shundan keyin u respublika matbuotida “Gulor”, “Yalangoyoq”, “Norin shilpiq”, “Mavlon kufur”, “Nish” kabi taxalluslar bilan tez-tez feltonlar, satirik she‘rlar, hikoyalar e‘lon qila boshlagan. 1925-yilda “Qizil O‘zbekiston” gazetasi uni Toshkentga gazeta tahririyatida ishlashga taklif etadi. Gazetaning Abdulla Qahhorning yozuvchi sifatida shakllanishida katta o‘rin katta.

Abdulla Qahhor adabiyot olamiga hikoya janrining tengsiz ustasi bo‘lib kirgan.

Yozuvchini hatto o‘zbek Chexovi deb ham atashadi. Uning ilk kitobi “Qishloq hukm ostida” nomli kichik qissa 1932-yilda nashrdan chiqqan.

Shundan soʻng yozuvchining “Olam yasharadi” va “Tangrining kulgisi” degan toʻplamlari bosildi. Adibning “Boshsiz odam” hikoyasi ayol qadr-qimmatini, ozodligini kuylovchi asar hisoblanadi.

Yozuvchining 30-yillar ijodida ilk romani – “Sarob” yaqqol koʻzga tashlanadi. Ushbu roman keng mavzuli boʻlib, oʻsha davrdagi hayot manzaralarini real tasvirlagan, voqealar tasvirida haqiqatni saqlab qolgan.

Abdulla Qahhor ijodiy hayoti mobaynida 40 dan ortiq asar yozgan. Bu kitoblar orasida 30 taga yaqin hikoyalar boʻlib, ular oʻzbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani bilan ahamiyatlidir. “Asror bobo”, “Kampirilar sim qoqdi”, “Xotinlar” hikoyalari va “Oltin yulduz kabi qissalarida oʻzbek jangchilarining mardligi, halqimizning mehnatdagi jonbozligi, yuksak vatanparvarligi ifodalangan. Yozuvchining urushdan keyingi yillarda yaratgan “Qoʻshchinor chiroqlari” (1951) romani va “Sinchalak” (1958), “Muhabbat” (1968), “Oʻtmishdan ertaklar” (1965) qissalari, “Boshsiz odam”, “Anor”, “Bemor”, “Dahshat”, “Oʻgʻri”, “Millatchilar”, “Sanʼatkor”, “Adabiyot muallimi”, “Oʻjar” kabi hikoyalari oʻzbek nasrining taraqqiyotiga muhim hissa boʻlib qoʻshildi.

Abdulla Qahhor - dramaturg

Adib 1938-1939 yillar Hamza nomidagi Oʻzbek akademik drama teatrining adabiy boʻlimiga boshchilik qilgan. U oʻzining “Shohi soʻzana” (1951), “Ogʻriq tishlar” (1954), “Tobutdan tovush” (1962), “Ayajonlarim” (1967), “Soʻnggi nusxalar” komediyalari bilan oʻzbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan. Ayniqsa, “Shohi soʻzana” hajviy pyesasi respublika va qator xorijiy mamlakatlar sahnalarda muvaffaqiyatli namoyish qilingan.

Bemor – Oʻzbekiston xalq yozuvchi Abdulla Qahhor qalamiga mansub hikoya. Asar 1936-yilda yozib tugatilgan va nashr etilgan[1][2].

Hikoya yozuvchining oʻzi yashagan davr muhitini yoritadi hamda unda jamiyatdagi muhim muammolar – qashshoqlik, ilmsizlik, loqaydlik kabi illatlar tanqid qilinadi. Asarda boy va kambagʻallar oʻrtasidagi tafovut, ularning oʻzaro munosabatlari hamda inson qadr-qimmatini dolzarb masala sifatida koʻtariladi. Hikoyaning bosh qahramoni – bemor ayol obrazi orqali muallif butun bir xalqning oʻsha davrdagi ogʻir ijtimoiy holatini ochib beradi[3][4].

Bu hikoyada shaxsan meni eng taʼsirlantirgan joyi:

– Begunoh goʻdakning saharda qilgan duosi ijobat boʻladi, uygʻoting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu gʻashligi bilan yigʻladi, keyin ota-sining gʻazabidan, onasining ahvolidan qoʻrqib, kampir oʻrgatgancha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri oʻsal boʻldi. “Koʻngilga armon boʻlmasin” deb “chilyosin” ham qildirishga toʻgʻri keldi. Sotiboldi toʻqigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz koʻtardi. “Chilyosin”dan bemor tetik chiqqanday boʻldi; shu kechasi hatto koʻzini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uygʻotmang.

Yana koʻzini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini oʻlik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uygʻondi va koʻzini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...
shu yeri bōldi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, demak, Bemor faqat Sotiboldining xotini emas ekan-da!
Butun jamiyat bemor-xasta, najotga zor, tuzalishga muhtoj ekan-da!

Xuddi shu haqiqatni teran anglaganlari tufayli ham Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniy singari bizning yuzlab jadid bobolarimiz el-u yurt dardini yengillatish, uni ma'rifatga oshno etish, ilm-u madaniyatini yuksaltirish, oxir-oqibat mamlakatni istiqloлга olib chiqish uchun kurashganlar, shu yo'lda qurbon bo'lganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor, Bemor (hikoya) „„Bemor“ hikoyasi Ziyouz.com saytida“ (2013-yil 3-noyabr).
2. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida xudosizlik targ‘ib qilingan(mi?)“ (2018-yil 9-avgust).